


Farmatsiya



4
2026

FARMATSIYA

Ilmiy-amaliy jurnali

*2021 yilda tashkil etilgan
Yiliga 4 marta chiqadi*

№ 4 / 2026

*Axborotnoma OAK Rayosatining 2023 yil 31 mart
335/5-son qarori bilan dori vositalari texnologiyasi,
farmatsevtik kimyo, farmakognoziya, farmatsevtika ishini tashkil
qilish va farmatsevtika iqtisodiyoti, farmakologiya fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan*

ISSN-C-31796

FARMATSIYA

Научно-практический журнал

*Основан в 2021 г.
Выходит 6 раз в год*

TOSHKENT
2026

FARMATSIYA

ISSN-C-31796

№ 4 / 2026

Tahrir hay'ati:

1. Tillayeva G.U. – bosh muharir, f.f.d., professor, Farmatsevtik ishlab chiqishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

2. Amanova M.M. – dotsent, ToshDAU dorivor o'simliklar kafedrasi mudiri.

3. Bagdasarova I.S. – b.f.n., professor, Tibbiy-biologik fanlar kafedrasi, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti.

4. Dumatov A.F. – f.f.d., professor, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti rektori.

5. Iskandarova L.M. – OOO "Navkar Group" laboratoriya mudiri, farm. fanlari nomzodi.

6. Jalilov F. S. – f.f.d., professor, Tibbiyot fakulteti, Farmatsevtik kimyo kafedrasi mudiri. Alfraganus universiteti.

7. Kariyeva Y.S. – f.f.d., professor, Dori turlari texnologiyasi kafedrasi mudiri, Toshkent farmatsevtika instituti.

8. Komilov X.M. – f.f.d., professor, Farmakognosiya kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

9. Mavlyanova M.B. – f.f.n., dosent, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti.

10. Maksudova F.X. – (muhammad o'rinbosari) f.f.d., professor, Dori vositalarini sanoat texnologiyasi kafedrasi mudiri, Toshkent farmatsevtika instituti.

11. Mirakilova D.B. – A.Sultonov nomli O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti (UZ-KFITI) ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

12. Nazarova Z.A. – f.f.d., professor, Dori turlari texnologiyasi kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

13. Nabiyeu A.X. – t.f.n., yetakchi ilmiy xodim, Tajriba texnologiya laboratoriyasi, O'zR FA, Bioorganik kimyo instituti.

14. Xakimjanova Sh.O. (tehnika kotib) – Farmatsevtik ishlab chiqishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasi assistenti, Toshkent farmatsevtika instituti.

15. Olimov N.K. – f.f.d., professor, Farmakognosiya va dori vositalarini standartlash kafedrasi mudiri, Toshkent farmatsevtika instituti.

16. Sanayev Z.I. – t.f.n., katta ilmiy xodim, Farmakologiya va toksikologiya bo'limi, O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti.

17. Sidametova Z.E. (ma'sul kotib) – f.f.d., professor, Farmakognosiya va dori vositalarini standartlash kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

18. Tillaeva U.M. – f.f.d., dotsent, Toshkent farmatsevtika instituti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

19. Tulaganov A.A. – f.f.d., professor, O'zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti, O'simliklar va sintetik Dori vositalarini texnologiyasi nomli laboratoriya mudiri

20. Tulyaganov R.T. – b.f.d., professor, Farmakologiya va biologik fanlarkafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

21. Tagayaliyeva N.A. – b.f.n., katta ilmiy xodim, Biologik faol moddalar farmakologiya si va skriningi laboratoriyasi mudiri, O'zR FA Bioorganik kimyo instituti.

22. Tukhtaev Kh.R. – f.f.d., professor, Noorganik, fizik va kolloid kimyo kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

23. Tukhtaev B.E. – b.f.d., professor, ToshDAU dorivor o'simliklar kafedrasi

24. Urmanova F.F. – f.f.d., professor, Farmakognosiya kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

25. Usmanaliyeva Z.U. – f.f.d., professor, Farmatsevtik va toksikologik kimyo kafedrasi mudiri, Farmatsevtika va tadqiqot instituti.

26. Yunusxodjayeva N.A. – f.f.d., professor, Farmatsevtik va toksikologik kimyo kafedrasi, Farmatsevtika va tadqiqot instituti.

Tahrir kengashi:

Prof. Krasnyuk I.I. (Rossiya)
Prof. Dzhusupova Zh.D. (Rossiya)
Akad. Ramenskaya G.V. (Rossiya),
Akad. Patigorskaya N.V. (Rossiya),
Prof. Ordabaeva S.K. (Qozog'iston),
Prof. Sadchikova N.P. (Rossiya)

Prof. Grizodub A.I. (Ukraina),
Prof. Kurmanov R. (Qirg'ziston),
Prof. Shukirbekova A.B. (Qozog'iston),
Akad. Sagdullayev Sh.Sh. (O'zbekiston),
Akad. To'rayev A.S. (O'zbekiston).

UDK 614.27, 615.11

STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI

**Madatova Nazira Abdug'afforovna¹, Rizayeva Nilufar Muxitdinovna²,
Xusainova Rayxon Ashrafovna², Xayitboyev Jasur Abdusaminovich²**

e-mail: jxayitboyev90@gmail.com

¹*Alfraganus universiteti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi,*

²*Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi*

O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika 2021-2025-yillardagi Davlat reestri ma'lumotlari, "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasi va "DRUG AUDIT" ma'lumotlari asosida stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining assortiment tahlili o'tkazildi.

Kalit so'zlar: *Dori vositalari, farmakologik guruh, "DRUG AUDIT" ma'lumotlari, "VIDAL", assortiment tahlil, stomatologiya.*

Kirish: Bugungi kunda stomatologik dori vositalarining ahamiyati juda dolzarb. Stomatologiyada og'iz bo'shlig'i salomatligini saqlash, tish va milklarni davolash, shuningdek, estetikani yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli xizmat va texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Gellar, surtmalar va eritmalar kabi stomatologik dori vositalari og'iz bo'shlig'ining turli kasalliklari, jumladan, kariyes, parodontit, stomatit va boshqa yallig'lanish jarayonlarining oldini olish hamda davolash uchun qo'llaniladi. Anti-septiklar va yallig'lanishga qarshi vositalar kabi mahalliy preparatlar tizimli nojo'ya ta'sirlarni kamaytirgan holda, muammoli sohalarga tez va samarali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Zamonaviy stomatologik dori vositalari qo'llash uchun qulay bo'lishini hisobga olib ishlab chiqilmoqda. Milklar va tishlar holatini yaxshilashga

yordam beradigan dori vositalari estetik stomatologiyada ham muhim o'rin tutadi [1].

Ishning maqsadi: Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining assortiment tahlilini 2021-2025-yillardagi davri uchun farmatsevtik bozordagi o'rnini kontent tahlili o'rganish. "DRUG AUDIT" ma'lumotlari asosida, kasallikda qo'llaniladigan dori vositalar guruhini "VIDAL" elektron dori vositalari ma'lumotnomasi asosida o'rganish [2,3].


Tadqiqotning usullari va materiallari: Tadqiqot davomida birinchi navbatda stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining guruhini aniqlash maqsad qilindi. Buning uchun "VIDAL" elektron dori vositalari ma'lumotnomasidan foydalanildi.

Tahlil jarayonida obyekt sifatida O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot

amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestridan va "DRUG AUDIT" ma'lumotlaridan foydalanildi [3,4].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining guruhlarini aniqlash maqsadida "VIDAL" elektron dori vositalari ma'lumotnomasidan foydalanildi. Ushbu ma'lumotnomada hozirgi kunda Rossiya davlatida qo'lla-

nilayotgan 36 nomdagi stomatologiya amaliyotda qo'llanilayotgan dori vositalari berilgan. Ulardan 27 tasi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan mahalliy dori vositalari, 9 nomdagisi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan antiseptik va mikrobg qarshi qo'llaniladigan dori vositalariga to'g'ri keladi. Ushbu ma'lumotnomada keltirilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarni dori shakli bo'yicha tahlili 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasi asosida stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining dori shakllari tahlili.

Tahlilning keyingi qismida 2025-yildagi №29-sonli O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrini tahlili amalga oshirildi. Davlat reestridan "stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalar" alohida ajratib olindi va tahlil ular asosida analga oshirildi. Tahlil davomida mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hamda xorijiy dav-

latlardan keltirilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarning miqdori tahlil qilindi.

2025-yilda Davlat reestridan umumiy 19 nomdagi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, ulardan 1 nomdagisi (5.3%) mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, 3 nomdagisi (15.8 %) MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan va 15 nomdagisi (78.9 %) xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilganligi aniqlandi.



2-rasm. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrtdagi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining tahlili

Tahlil natijalariga ko'ra stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining asosiy qismini xorijiy davlatlardan keltirilmoqda, keyingi o'rinlarda MDH davlatlaridan keltirilgan dori vositalari egallaydi. "VIDAL" elektron dori vositalari ma'lumotnomasiga kiritilgan, Rossiya farmatsevtik bozorida qo'llanilayotgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat reestrtdagi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining ulushdagi farq, ba'zi "VIDAL" ma'lumotnomasidagi dori vositalar Davlat reestrtdan o'tmaganlari bilan izohlanishi mumkin.

Tahlilning keyingi qismida 2021-2025-yillardagi Reestr ma'lumotlari taqqoslandi.

2024-yilda Davlat reestrtdan umumiy 12 ta, 2023-yilda umumiy 14 ta, 2022-yilda 15 ta va 2021-yilda umumiy 13 ta stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan. Natijalardan ko'rishimiz mumkinki 2021-2022-yillarda stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tish miqdori ortgan, lekin 2022-2024 yillarda esa ro'yxatdan o'tish miqdori kamaygan (1-jadval).

1-jadval.

2021-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrtdan o'tkazilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining ulushi

Ishlab chiqaruvchilar	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2025-yil	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Umumiy miqdori	13	100	15	100	14	100	12	100	19	100
Xorijiy davlatlar	10	77	11	73,4	11	78,5	10	83,4	15	78,9
MDH davlatlari	3	23	3	20	2	14,3	1	8,3	3	15,8
Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	-	-	1	6,6	1	7,2	1	8,3	1	5,3

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki 2021-yilda mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan umuman stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilmagan. 2022-2025-yillarda esa 1 ta - "Dentafill" farmatsevtik ishlab chiqarish korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan stomatologiya amaliyotida

qo'llaniladigan dori vositasi ro'yxatdan o'tkazilgan.

Tahlilni keyingi qismida stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari 2021-2025-yillarda dori shakli bo'yicha tahlil qilindi va natijalarni 2- jadvalda keltirildi.


2-jadval.

2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestridan o'tkazilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining dori shakli bo'yicha tahlili

Dori shakli	2021		2022		2023		2024		2025	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Umumiy	13	100	15	100	14	100	12	100	19	100
Gel	11	84,6	13	86,6	11	78,7	9	75,1	10	52,7
Eritma	1	7,7	1	6,7	1	7,1	1	8,3	2	10,5
Sprey	1	7,7	1	6,7	1	7,1	1	8,3	5	26,4
Ineksion eritma	-	-	-	-	1	7,1	1	8,3	1	5,2
Pastilka	-	-	-	-	-	-	-	-	1	5,2

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2021-2025-yillarda stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalaridan asosan gel, eritma va sprey ko'rinishidagi dori shakliga ega dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan. Shuning barobarinda keyingi yillarda inyeksion eritma va pastilka ko'rinishidagi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tgan.

Tahlilimizning keyingi qismida stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha tahlili amalga oshirildi va tahlil natijalari 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. 2021-2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat reestridagi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining ishlab chiqarilgan davlatlar bo'yicha tahlili

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, 2021-yilda ro'yxatdan o'tgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining aksariyati, Hindiston, Polsha, Italiya kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib Turkiya va Xitoy kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan.

Tadqiqotning keyingi qismida stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori

vositalarining "DRUG AUDIT" 2020-2024-yil ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. "DRUG AUDIT" ma'lumotlari o'z ichiga asosan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining tegishli yillar asosida O'zbekiston bozoriga olib kirilgan va ishlab chiqarilgan hajmini va ushbu dori vositalarining pul ko'rinishidagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni olish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining 2020-2024-yil "DRUG AUDIT" ma'lumotlari asosida tahlili natijalari

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining bozorga chiqarilish qiymati 2021-yilda eng past qiymatni tashkil qilgan holda, 2022-2023-yillarda o'sish suratini namoyon qilgan.

Xulosa: Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasi bo'yicha amaliyotda qo'llanilayotgan miqdori 36 tani tashkil qilmoqda. Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining assortiment tahlili O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri asosida 2021-2025-yillardagi davri uchun olib borildi. Natijalardan ko'rishimiz mumkinki, 2021-2022-yillarda stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tish miqdori ortgan, lekin 2022-2024-yillarda esa ro'yxatdan o'tish miqdori kamaygan. Buning sababi 2023 yilda dori vositalarni ro'yxatdan o'tkazishdagi o'zgarishlar sabab bo'lgan. 2025-yilda Davlat reestrndan umumiy 19 nomdagi stomatologiya amaliyotida qo'lla-

niladigan dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan.

2021-2025-yillarda ro'yxatdan o'tgan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining asosiy qismini gel, eritma va sprey kabi dori shakllari tashkil qilgan. Inyeksion eritma va pastilkalarni ro'yxatdan o'tkazilishi 2024-2025-yillarda kuzatilgan.

Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining 2020-2024-yillar "DRUG AUDIT" ma'lumotlari asosida tahlili o'tkazildi. Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining bozorga chiqarilish qiymati 2021-yilda eng past qiymatni tashkil qilgan holda, 2022-2023-yillarda o'sish suratini namoyon qilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Казанский М.Р. Определение причин обращения за ортопедической стоматологической помощью пациентов с наличием дефектов зубных рядов // Dental Forum. - 2012. - № 5. - С. 63.
2. Sarvarova D. M. et al. Study of the assortment of antioxidant and hemostatic medicines registered in the republic of Uzbekistan //Journal of Pharmaceutical Negative Results. - 2023. - С. 1028-1033.
3. Muxutdinovna R.N., Abdugaffarovna M.N. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QAYD ETILGAN BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALAR ASSORTIMENT TAHLILI //Eurasian journal of medical and natural sciences. - 2024. - T. 4. - №. 1-2. - С. 191-197.
4. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrlari 2021-2025 yillar.

АССОРТИМЕНТНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

**Мадатова Назира Абдугаффоровна¹,
Ризаева Нилуфар Мухитдиновна²,
Хусаинова Райхон Ашрафовна²,
Хайитбоев Жасур Абдусаминович²**

e-mail: n.madatova@afu.uz

¹Университет Альфраганус, г. Ташкент,
Республика Узбекистан,

²Ташкентский фармацевтический
институт, город Ташкент,
Республика Узбекистан

Проведен ассортиментный анализ лекарственных средств, используемых в стоматологической практике, на основе данных Государственного реестра лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике в Республике Узбекистан за 2021-2025 годы, справочника лекарственных средств «VIDAL» и данных DRUG AUDIT.

Ключевые слова: Справочник, фармакологическая группа, данные DRUG AUDIT, «VIDAL», лекарственные средства, стоматология.

ASSORTMENT ANALYSIS OF MEDICINES USED IN DENTAL PRACTICE

**Madatova Nazira Abdugafforovna¹,
Rizayeva Nilufar Mukhitdinovna²,
Xusainova Rayxon Ashrafovna²,
Xayitboyev Jasur Abdusaminovich²**

e-mail: n.madatova@afu.uz

¹Alfraganus University, Tashkent,
Republic of Uzbekistan,

²Tashkent Pharmaceutical Institute,
Tashkent, Republic of Uzbekistan

Based on the data of the State Register of Medicines, Medical Devices, and Medical Equipment Approved for Use in Medical Practice in the Republic of Uzbekistan for 2021-2025, the "VIDAL" Drug Reference, and the "DRUG AUDIT" database, a assortment analysis of medicines used in dental practice was conducted.

Key words: Drug Directory, pharmacological group, DRUG AUDIT data, "VIDAL" drug data, dental practice.